[bekbosinadilbaev221@gmail.com](mailto:bekbosinadilbaev221@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola Yuridik shaxslarning bekor bo'lishi har doim o'ziga xos hayotiy dolzarblikni vujudga keltiradi. Chunki bir huquq subyektning barham topishi va uning o'rniga yangi huquq subyektning vujudga kelish yoki mol-mulkning keyingi taqdirini hal qilish masalalari har bir davlat uchun hamma vaqt muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zero, ushbu munosabatlarning mamlakatda qanday tartibga solinganligi qarab, davlatning iqtisodiy rivojlanishini belgilab olish mumkin.*

*Maqolada mualliflar tahlil, sintez, taqqoslash, deduksiya kabi umumiy ilmiy usullardan, shuningdek, bir qator aniq ilmiy usullardan foydalanadilar: nazariy va huquqiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, hujjatlarni tahlil qilish, mantiqiy usul, tizimli tahlil usuli, tarixiy usul, texnik usul.-huquqiy tahlil va boshqalar.*

*Maqolada nafaqat zarur huquqiy hujjatlar, sud amaliyotining qarorlari, balki huquqshunos olimlarning asarlari taqdim etilgan keng nazariy materiallar ham ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolaning natijasi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha asosli va aniq muallif takliflari bo'lib, uning maqsadi yuridik shaxslarni bekor qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarning*

*murakkab makonini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'lib hisoblanadi.*

*Bu takliflar muallifning yangiligi bo'lib, nafaqat fuqarolik huquqi nazariyasi va ilmi, balki huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *huquq, yuridik shaxs, fuqarolik huquqi, fuqarolik huquqiy munosabatlari, subyekt, yuridik shaxs bekor bolish, yuridik shaxs tugatishilishi.*

## SUMMARY

*This article is Legal of individuals void to be each always to himself special vital relevance to the body brings \_ Because one right of the subject I'm done to find and his instead of new right of the subject to the body to arrive or of property next fate solution to do issues each one state for everyone time important important have was \_ Because this one of relationships in the country how in order the fact that depending on the state economic development set get can \_*

*In the article, the authors use general scientific methods such as analysis, synthesis, comparison, deduction, as well as a number of specific scientific methods: analysis of theoretical and legal sources, comparison, summarization, document analysis, logical method, systematic analysis method, historical method, technical method .-legal analysis and others.*

*The article considers not only necessary legal documents, decisions of judicial practice, but also extensive theoretical materials presented by the works of legal scholars. The result of this article is the author's reasonable and clear proposals for amendments to the legal framework of the Republic of Uzbekistan, the purpose of which is to improve the legal documents regulating the complex space of legal relations related to the cancellation of legal entities. is lib.*

*These proposals are the author's innovation and are important not only from the point of view of the theory and science of civil law, but also from the point of view of law enforcement practice.*

**Key words:** law, legal entity, civil law, civil legal relations, subject, annulment of legal entity, liquidation of legal entity.

## KIRISH

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi har doim o‘ziga xos hayotiy dolzarblikni vujudga keltiradi. Chunki bir huquq subyektning barham topishi va uning o‘rniga yangi huquq subyektning vujudga kelish yoki mol-mulkning keyingi taqdirini hal qilish masalalari har bir davlat uchun hamma vaqt muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Zero, ushbu munosabatlarning mamlakatda qanday tartibga solinganligi qarab, davlatning iqtisodiy rivojlanishini belgilab olish mumkin.

Yuridik shaxslar bekor bo‘lishi bilan bog‘liq munosabatlar dolzarbligi yana shu bilan belgilanadiki, yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi davlat uchun bir vaqtning o‘zida ham salbiy, ham ijobjiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar xususida fikr bildirib mamlakatimiz prezidenti, quyidaglarni bayon etgan edi:

- Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarning aksariyati moliyaviy barqaror bo‘lmasani uchun davlatga og‘ir yuk bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda.<sup>15</sup>

Darhaqiqat, qarzdor korxonalarning tugatilishi shu korxona bilan iqtisodiy aloqada bo‘lgan boshqa korxonalarning qarzdorlikdan qutulishiga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR BO‘LIMI

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi masalalari bo‘yicha A.Shukrullaev tadqiqot olib borgan bo‘lib, uning tadqiqot ishi faqatgina qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta tashkil etish va tugatishning huquqiy tartibga solinishiga bag‘ishlanadi<sup>16</sup>. S.Xolboev

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

<sup>16</sup> Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-хукукий тартибга солиниши: Юрид.фан.номз.... Дисс. – Тошкент: 2001. – 154 б.

esa to‘la xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonalarning bekor bo‘lishi masalalari bilan shug‘ullangan bo‘lsa<sup>17</sup>, T.M.Turebekov jamoat birlashmalarining fuqarolik huquqi subyektliligi nuqtai-nazaridan ularning bekor bo‘lishi masalalarini<sup>18</sup>, S.S.Gulyamov, J.I.Yuldashev, O.Toshevlar esa aksiyadorlik jamiyatlarini qayta takshil etish va tugatishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishgan<sup>19</sup>, F.Qutlimuratov yuridik shaxslarning majburiy qayta tashkil etish jihatlarini, N.Lopaeva esa yuridik shaxslar bankrotiligi masalalarini tadqiq etgan<sup>20</sup>.

## NATIJALAR

Taqdiqot ishi shu bilan belgilanadiki, unda bildirilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosa va qoidalardan O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni bekor bo‘lishi tartibga soluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qo‘llashga oid nazariy va amaliy qoidalarni rivojlantirishda, yuridik shaxslarning bekor bo‘lishiga oid qonun hujatlarini takomillashtirishda, yuridik shaxslarni bekor bo‘lish asoslari va usullarini amaliyotda qo‘llashda foydalanish mumkin.

## MUHOKAMA

Shuni ta’kidlash kerakki, bu masala bo‘yicha ba’zi fikrlar mavjud. Shunday qilib, Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi xususida huquqshunos olimlar turli fikrlarni bilidirishadi. I.B.Zokirovning fikricha Respublikamiz hozirgi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish davrida yuridik shaxslar ko‘pincha qayta tashkil bo‘lish yo‘li bilan bekor bo‘ladilar<sup>21</sup>. I.V.Yeleseev ta’kidlashicha esa yuridik shaxslar faoliyatining

<sup>17</sup> Холбоев С.Б. Тўла хўжалик юритиш хукуки субъекти сифатида корхонанинг мулкий-хукукий лаёқати. Юрид.фан.номз....дисс. Автореф.-Тошкент: 1994.-19 б.

<sup>18</sup> Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права. Автореф.дис....канд.юрид.наук.-Тошкент: 2002 .-25 с.

<sup>19</sup> Гулямов С.С. Некоторые проблемы процессов реорганизации акционерных обществ в Узбекистане. //Обзоро законодательства Узбекистана.-Тошкент, 2004. -№4. -С.13.; Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик хуқуқининг субъекти сифатида.-Тошкент:ТДЮИ. 2004. -84 б.; Тошев О. Акциядорлик жамиятлари бекор бўлишида мол-мулкнинг хукукий холати. / «Фуқаролик процессуал қонунчилиги ва суд ислоҳотлари» мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари.-Тошкент: ТДЮИ, 2005.- Б.107.

<sup>20</sup> Лопаева Н. Практика рассмотрения хозяйственным судом города Ташкента заявлений о признании должников банкротами.//Хозяйство и право.-Тошкент, 1999. -№11-12. - С.69-72.

<sup>21</sup> Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик хукуки.-Тошкент: Адолат, 1996. -58 б.

bekor bo‘lishi uni qayta tashkil etish va tugatish asosida amalga oshiriladi<sup>22</sup>. J.I.Yuldashevning fikricha qayta tashkil etish uchun bekor bo‘lish iborasini qo‘llash ma’qul. Zero, tugatish bekor bo‘lishning bir shakli sifatida e’tirof etilsa, turli xil adashmovchiliklarni (umumiylar ma’noda tugatish va uning shakli sifatida ham tugatish iborasi ishlatilganda) keltirib chiqarishi mumkin<sup>23</sup>. Yuqorida ifodalangan dastlabki ikki fikrga e’tiroz bildirmagan holda J.I.Yuldashev tomonidan bayon qilingan mulohazalar bahsli ekanligini ta’kidlash lozim.

## XULOSO

Ilmiy-nazariy xulosalarga va amaliy tavsiyalarga kelindi:

1. Nazarimizda FKning 49-moddasidagi «o‘zgartirish» atamasi «tashkiliy-huquqiy shaklning o‘zgartirilishi» - deb nomlanishi kerak.
2. FKning 53-moddasi 2-qismi birinchi bandida belgilangan «yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida» jumlesi, ushbu modda 2-qismining ikkinchi bandiga o‘tkazilish lozim. Bunday o‘zgarish yuridik shaxsni tugatishning majburiy ushbu asosini majburiy tartibda bekor bo‘lish asoslari jumlasiga kiritgan bo‘lar edi. Zero, yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida tugatish yuridik shaxsni majburiy tartibda tugatish asosi hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lish tushunchasining mohiyati va mazmuni xususida to‘xtalib, «bekor bo‘lish» atamasi huquqiy mazmunga ega, amalga oshirilish muayyan huquqiy oqibatni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqi subyektliligi maqomini belgilashda ta’sir ko‘rsatadigan yuridik faktning o‘ziga xos turi degan xulosaga kelish mumkin. Zero, yuridik fakt singari «bekor bo‘lish» qonun yo‘l qo‘ygan

<sup>22</sup> Гражданское право./ Под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого.Т.1.-М.:2003.Проспект,-162 с.

<sup>23</sup> Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик хуқуқининг субъекти сифатида.-Тошкент: ТДЮИ, 2004.-137 б.

harakatlar orqali amalga oshiriladi va hamma vaqt fuqarolik huquq va burchlarini (boshqacha aytganda subyektlilikni) bekor bo‘lishiga olib keladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: [Мазкур янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2023-йил 30-апрел куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган]. – Текст: электрон // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. –Тошкент: Адолат. 2022. –520 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 28 июлдаги №ПФ-2331 сонли «Молия-хўжалик фаолиятни амалга оширмаётган ва қонунчиликда белгиланган муддатларда ўзларининг устав жамғармаларини шакллантирган корхоналарни тугатиш тартиби соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
5. Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-хуқуқий тартибга солиниши: Юрид.фан.номз.... Дисс. – Тошкент: 2001. – 154 б.
6. Холбоев С.Б. Тўла хўжалик юритиш хуқуқи субъекти сифатида корхонанинг мулкий-хуқуқий лаёқати. Юрид.фан.номз....дисс. Автореф.- Тошкент: 1994.-19 б.
7. Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права. Автореф.дисс....канд.юрид.наук.-Тошкент: 2002 .-25 с.
8. Лопаева Н. Практика рассмотрения хозяйственным судом города Ташкента заявлений о признании должников банкротами./Хозяйство и право.-Тошкент, 1999. -№11-12. - С.69-72.

9. Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ҳукуқи.-Тошкент: Адолат, 1996. -58 б.

10. Гражданское право./ Под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого.Т.1.-М.:2003.Проспект,-162 с.

11. Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик ҳукуқининг субъекти сифатида.-Тошкент: ТДЮИ, 2004.-137 б.

12. Братус С.Н. Субъекты гражданского права.-М.: Юридлит, 1950.-367 с.

13. <https://stat.sud.uz/iib.html>

**BOJXONA TO‘LOVLARIDAN QARZDORLIKNI KELIB CHIQISHINI  
BORASIDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA O‘ZARO  
HAMKORLIK ISTIQBOLLARI**

**Sirochev Mexroj Bobirovich**

bojxona instituti o‘qituvchisi,

e-mail: [sirochevmexroj@gmail.com](mailto:sirochevmexroj@gmail.com)

Bugungi kunda mamlakatimizda tovarlar harakatini tezlashtirish maqsadida xavfni boshqarish tizimini qo‘llash natijasida rasmiy lashtiruv vaqt qisqardi. Natijada, tadbirkorlar tomonidan ko‘proq foyda olish maqsadida har xil qing‘ir yo‘llar bilan, ya’ni tovarlarni qiymatini, TIF TN kodini o‘zgartirish hamda imtiyozlardan noto‘g‘ri foydalanish holatlari ko‘paydi. Bular esa bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar sanalib qoldi. Va bu borada xalqaro jahon tajribasini mamlakatimizda qo‘llashni taqozo etdi. Bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni kelib chiqishini oldini olishda har bir davlat o‘ziga xos usullardan foydalanishidan kelib chiqib, quyida misol tariqasida Argentina va Ozarbayjon davlatlari tajribasini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

**Argentina tajribasi**

Ushbu davlatda joriy jarayon hududiy bojxona boshqarmalari tomonidan qo‘shimcha tarzda import/eksport bojlari joriy etish, elektron xabarnomalar yuborish va o‘zgartirishlar kiritish bilan shug‘ullanuvchi “MALVINA IT System” (SIM) tizimi tomonidan amalgalashiriladi.

Import yoki eksport deklaratsiyalari joriy o‘rganish va tekshirishlar tugagandan so‘ng “EX Post Control System” tizimiga yuboriladi. Agar xato kamchiliklar mavjud bo‘lmasa, o‘zgarmasdan qolaveradi, agar xato va kamchiliklar aniqlansa tizim tomonidan deklarantga talabnoma avtomatik tarzda yuboradi.

Qarzdorlik to‘g‘risida ma’lumot kiritilgan zahoti SIM identifikatori bilan birga dastur deklarantga qancha miqdorda qo‘sishimcha to‘lov hisoblanganligi hamda penya miqdori bo‘yicha bir varaqlik bildirishnomasi shaklini yuboradi. Ushbu bildirishnomasi shakli elektron sertifikat shaklida bo‘lib, “Information System of Communications and Electronic Customs Notifications – SICNEA” tizimi orqali yuboriladi.

So‘ng deklarant o‘ziga kelgan talabnomani qabul qilish uchun 10 kun muddat beriladi. Bildirishnomasi qabul qilingandan so‘ng, SIM dasturi avtomatik tarzda 10 ish kunlik muddatni hisoblab boradi. Ushbu vaqt davomida ushbu qiymatni qabul qilishi yoki bo‘lmasa o‘zgartirish kiritishni talab qilishi mumkin.

Birinchi holatda to‘lov qilinganlik to‘g‘risidagi ma’lumot SIM tizimida ko‘ringandan so‘ng jarayon yakunlanadi.


Ikkinci holatda, deklarant va bojxona o‘rtasida qarzdorlik summasi qayta hisoblanib, dastur bergen summadan farq qilgan paytda, dasturda “challenged” belgisi paydo bo‘lib qoladi va dastur uchun ushbu yangi summa amal qila boshlaydi.

Agar shunda ham 10 ish kunida zarar to‘lanmasa, ma’lum qilingan muddat tugagandan 15 kun o‘tgach majburlov choralari ko‘rila boshlanadi. Oxirgi etaplarda, bojxona tovarlarni to‘xtatib turish huquqididan va tashkilot egasini yoki bo‘lmasa uning moliyaviy javobgar shaxslarini ma’muriy javobgarlikka tortish huquqididan foydalanishadi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisi maqomidan ham ozod etilishgacha bo‘lgan jazo chorasi qo‘llashi mumkin.

Shu yo‘l bilan, tadbirkorlar kechiktirilgan to‘lov uchun qo‘sishimcha penyadan hamda sudlanib tadbirkorlik huquqini yo‘qotishdan qo‘rqib bojxona qiymatini buzish holatlarini sodir etishdan qochishadi.

### Ozarbayjon tajribasi

Ozarbayjon davlati 10 ta davlat bilan o‘zaro erkin savdo bitimi va Turkiya davlati bilan tovarlarni preferensial tarzda olib o‘tish bo‘yicha kelishuvi mavjud va o‘zaro axborot almashinuvini yo‘lga qo‘ygan.



Shuningdek ushbu davlatning Bojxona Kodeksini 258.1 bandiga asosan bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni kelib chiqishini oldini olish uchun tovarlarni quyidagi shartlar asosida erkin muomalaga chiqarish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan:

1. Depozit
2. Aval(veksel majburiyati)
3. Bank kafolati
4. Bojxona organlarining depozit hisobraqamiga pul o‘tkazmalar
5. Sug‘urta
6. Uchinchi tomonlar kafilligi
7. Oldindan to‘lov

Yuqoridaqgi usullardan biridan foydalanib bojxona to‘lovlarini ta’minlasa, bojxona organlari tomonidan bojxona to‘lovlarini 14 kundan 60 kungacha kechiktirib to‘lashga ham imkoniyat taqdim etadi. Bundan tashqari agar bojxona to‘lovları noto‘g‘ri hisoblangan holati aniqlanib qarzdorlik holati kelib chiqqan hollarda, bojxona organlarining ta’minlovga summasidan kesib olish huquqi mavjud. Ushbu holatda tadbirkor debtor qarzdor hisoblanib qoladi.


Agar bojxona organlari qarzdorlikni tadbirkor tanlagan usulda undirib olishni iloji borligiga shubhasi bo‘lsa, bojxona organlari xuddi shunday ta’minlov turidan boshqasini tanlashni talab qilish huquqi mavjud.

Ozarbayjon tajribasiga asosan tovarlarni vaqtinchalik saqlash bojaxona rejimiga joylashtirgandagina ta'minlov usullaridan foydalanish majburiy hisoblanmaydi.

Ushbu davlatning o'ziga xos jihatni agar bojaxona to'lovlaridan qarzdorlik kelib chiqqan taqdirda ham o'z vaqtida undirib olish chorasi ko'rib qo'yganligidadir.

### **Xalqaro hamkorlik doirasida**

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash va noqonuniy tovar aylanishini oldini olish maqsadida 8ta davlat bilan hamda 1 ta tashkilot bilan bojaxona qo'mitasi o'rtasida elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.



Axborot almashish tizimining samarasi natijasi sifatida Tashkent shahar bojaxona boshqarmasi tomonidan 2022-yilda yuborilgan xalqaro so'rovnomalarning javob xatlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarini ko'rishimiz mumkin:

2022-yil davomida Tashkent shahar bojaxona boshqarmasi tomonidan jami **95 ta** so'rovnama yuborilgan bo'lib, shundan **84 tasiga** javob qaytarilgan hamda

**60 ta** holatda tafovut mavjudligi aniqlanib **32,1 mlrd so'm** miqdorida qo'shimcha to'lov hisoblangan<sup>24</sup>.

### **2-rasm. 2022-yil davomida qo'shimcha hisoblangan bojaxona to'lovlar (Tashkent shahar bojaxona boshqarmasi kesimida)**

Tashkent shahar bojaxona boshqarmasi tomonidan 2022-yil davomida jami **58,4 mlrd so'm** miqdorda bojaxona to'lovlaridan qarzdorlik kelib chiqqan. Bundan shu kelib chiqadiki so'rovnomalor orqali olingan ma'lumotlar asosida aniqlangan kamomadlar jamiga nisbatan **55%ini** tashkil etadi.

<sup>24</sup> Tashkent shahar bojaxona boshqarmasi "Daromadlar va bojaxona statistikasi bo'limi" ma'lumotlariga asosan.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda bojxona to‘lovlardan qarzdorlikni kelib chiqishini oldini olish borasida xalqaro tajribalarni o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki: Ozarbayjon tajribasidan biz tovarlarni bojxona rejimlarida rasmiylashtirishda bojxona ta’minlov turlaridan birini qo‘llash. Argentina tajribasidan esa bojxona to‘lovlardan qarzdorlik kelib chiqqandan so‘ng uni nazorat qilish mexanizmini hamda ushbu holatlarni sodir etganda tadbirkorlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turlarini o‘zimizga joriy etsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasida yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan davlatlar bilan ya’ni: Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya va Hindiston davlatlari bilan o‘zaro axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlarning ochiq bo‘lishiga hamda sog‘lom raqobatni shakllantirishga imkon yaratadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon bojxona tashkiloti 2021-yildagi “Debt Management in Customs Administrations” mavzusidagi to‘lov paketi dasturi.
2. T.N.Pardayev, A.A.Shadmankulov “Bojxona tariflari va to‘lovlar”, Darslik// Toshkent: “Tafakkur qanoti” 2017-yil
3. S.Gulyamov, Z.Makkamov, T.Pardayev, “Qo‘sishimcha hisoblangan bojxona to‘lovlaring kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish choralar”, uslubiy qo‘llanma. T.: OHBI, 2016-y
4. Toshkent shahar bojxona boshqarmasi “Daromadlar va bojxona statistikasi bo‘limi” ma’lumotlariga asosan.

## АБДУЛЛА АВЛОНИЙНИНГ "БИРИНЧИ МУАЛЛИМ" АСАРИДАГИ ҲИКОЯТЛАРДА ТАРБИЯ МАСАЛАСИ

Хошимова Нигорахон Тоштэмир қизи талаба

Электрон почта манзили: [xoshimovanigora59@gmail.com](mailto:xoshimovanigora59@gmail.com)

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети

**Аннотация:** мақолада Авлонийнинг дарслекларидағи таълим-тарбия масалалари ҳақида фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** ёмонлик жазоси, қаноат, яхшилил кучи, иттифоқчи лик.

"Биринчи муаллим" асари Авлонийнинг педагогик асарлари қаторига киради. Мактаб ўйқувчилари учун янги қўлланма тарзида яратилган. Асарда бир қанча ҳикоятлар келтирилган бўлиб, ҳикоятлар ғояси ўқувчилардаги ахлоқий сифатларнинг мукаммал шаклланишида ўрин тута олади. Бу эса улардан қай йўсинда хулоса чиқара олишга боғлиқ. Асарнинг кириш қисмида -- айнан кириш дея келтирилмаган, аммо асарни ёзишдан мақсад ифодалангани учун шундай атадик -- асар нима сабабдан ёзилгани, кимлар учун мўлжаллангани ҳақида баён этилган: "Шояд миллат болаларина фойдабахш ўлур умидинда бир неча муаллимларимизнинг илтижолари ила кўб вақт тажриба сўнгидан бу рисолайи ожизонамни "Биринчи муаллим" исми-ла майдони интишора қўйдим". Асар мана шу сабаб дунёга келган. Адиб ундаги қусур ва камчиликлар учун узр хам сўрайди. Бу танбеҳларни тўғри қабул қиласагини таъкидлайди.

"Ёмонлик жазоси" ҳикоясида Қосим исмли бебош боланинг ёлғончилик оқибатида ўзи сабаб олган жазоси ҳақида ҳикоя қилинади. Ота-онасининг танбеҳларини қулоққа илмасдан ҳамиша ёлғон гапирувчи Қосим болаларга ўрнак бўлиши лозим. Ёлғончилик ҳеч замонда ёқланмайди. Бу энг катта гуноҳлардан бири. Бир марта айтилган ёлғон қолган ёлғонларнинг бошланишига

замин яратади. Қосим ҳам меҳмон учун тайёрлаб қўйилган таомларни ея туриб, емадим деб туриб олиши; отаси стол устига қўйган тангани ола туриб олмадим дейиши оқибатида жон берди. Тангани олган заҳоти оғзига ютиб, мен олмадим дея ёлғон сўзлаши сабаб танга томоғига тиқилиб вафот этади. Қинғир ишнинг қийиги қирқ йилда ҳам чиқади. Ёлғонлар абадий эмаслигини англаб етмаган Қосим ўзига тўғри хулоса чиқаргандир, аммо энди кеч. Сўнгги пушаймон ўзингга душман. У қайта сўзлолмайдиган жазога ҳукм этилди. Қосимнинг ота-онасининг айтганини қилмасдан ўзбилармонлик билан қилган харакатлариға ёлғон сўзлаши нуқта қўйди. Авлоний "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ асари"да ёлғон сўзни кизб, уни сўзлайдиганларни эса каззоб деб атайди. Асарда шунингдек, Пайғарбаримиз сўзларидан ва Қуръони каримдан ибратли мисоллар келтирилади. Пайғамбаримиз : "Алкazzобу ло уммати" -- "ёлғончи менинг умматимдан эмасдур", -- демишлар. Қуръони каримда: "Кизбни имони йўқ кишилар сўйларлар",-- демишлар.

"Қаноат" ҳикоясида эса бир кишининг Али ҳамда Вали исмли ўғиллари орқали қаноатли ва қаноатсиз одамнинг насибасида ҳам ер билан осмончалик фарқ борлиги очиб берилган. Нафақат насибасида оилада, жамиятда тутган ўрнида ҳам фарқ бўлиши тасвирланган. Қаноатли фарзанд Алининг отаси олиб келган олмадан фақатгина битта -- ўз улашини олгани, қаноатсиз фарзанд Валининг очкўзлиги сабаб ўз улушидан ҳам бебахра қолганилиги болаларга хамиша ўзи насибасига эгалик қилиш лозимлигини ўзганикига кўз тикса, ўзиникидан ҳам маҳрум бўлиши аниқ эканлигини ўргатади. Бу ерда яна бир масала ҳақида фикр юритиш даркор: оилада нечта фарзанд бўлса, ҳар бири ота-онасининг ўгитларидан айрича хулоса чиқаради. Ушбу ҳикоя болаларга қаноатли бўлиш билан ҳар ерда ҳам улушга эга бўлиш мумкинлиги ҳақида сабоқ беради. Қаноатли кишининг ишида ҳам унум бўлади, сабаби у Аллоҳ томонидан берилган хурсандчиликка ҳам, ғам-ғуссага ҳам қаноат ҳамда сабр қиласи. Сабрнинг таги сариқ олтин. Унинг меваси ширин бўлади. Бунинг учун эса қаноатни барча яхши сифатларнинг бошида турувчиси деб қабул қилмоқ ва унга

амал қилмоқ даркор. Авлоний ўзининг "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ" асарида қаноатга шундай таъриф беради: "Қаноат бир хазинадурки, нақдинаси кундан кун ортар. Бу хазинага ега бўлган кишилар умрларини шавқ ва роҳатда кечиурлар". Хазинадек қийматга эга бўлган қаноат бизга Қодир томонидан тухфа этилган. Фақатгина уни ўзимизда шакллантира олишимиз керак. Бунинг учун, аввало, инсон болалиқдан тўғри тарбия топмоғи даркор.

Навбатдаги ҳикоя эзгулик ҳақидаги "Яхшилик ерда қолмас" ҳикоясидир. Ҳикояда асосий қаҳрамонлар Ари ҳамда Кабутар саналади. Вокеалар ривожи уларнинг ўзаро қилган яхшиликларидан ривоят қиласди. Ҳикояда айтилишича, сув юзида сузиб кетаётган ари беҳосдан сувга қулвйди. Кабутар буни кўриб ёрдамга ошиқади. Арига бир чўпни иргитади. Ари шу чўп сабаб омон қолади. Маълум вақт ўтгач қабутарга бир болакай тузоқ қўяди. Кабутар тузоққа илинади. Буни кўрган ари боланинг қулогини чақиб олади. Кабутар эса тузоқдан қочиб қутулади. Ҳикоя мазмунинидан кўриниб турганидек, кимгадир яхшилик қилишда иккиланмаслик лозим. Қилган яхшилингиз ўша инсондан қайтмаса, бошқадан қайтади. Қилган эзгу амаллар мартабамизни бу дунёда ҳам, у дунёда ҳам оширади. Яхшилик қилиш билан киши номига савоб ёзилади. Шунинг учун яхшилик қилаётганда бу яхшилигим ўзим учундир, деб қилиш оқил кишининг ишидир.

Яхшилик қилсанг, бўлур жонинг омон,

Яхшилиқдан ҳеч киши қилмас зиён.

"Иттифоқ" ҳикояисида замон ва макон танламас иттифоқ ҳақида ҳикоя қилинади. Ҳикояга асос қилиб, чумолилар ҳаёти олинган. Энг майда хашаротлардан бўлмиш чумолилар ўртасида иттифоқ жуда мустаҳкам ўрнатиларди. Табиатан кузатилса ҳам ҳар бир чумoliniнг ўз вазифаси бўлади ва улар буни жуда яхши англашади. Агар инига сув кириб кетса, дастлаб қироличаси ва тузумларини индан ОЛИБ чиқадилар. Четдан ҳужум қилинса ҳам улар биргаликда ҳаракат қиласдилар. Ҳар қандай тўсиқни ҳам енгиб ўта оладилар. Иттифоқ оилада ҳам, жамиятда ҳам, давлатлар ўртасида ҳам, икки дўст орасида

ҳам бўлиши керак. Бир ҳикояда айтилади. Отанинг уч ўғли бўлиб, улар бир-бири билан келишмас, ноаҳил экан. Шунда ота бир боғ чўпни олибди-да, уларни битта-битта синдира бошлабди. Чўплар осон синибди. Ҳаммасини биргаликда синдирган экан. Кучи етмабди. Шунда ўғиллар отаси нима демоқчи эканлигини тушунибдилар ва бундан кейин аҳил яшашга келишибдилар. Давлатлар кесимида оладиган бўлсак, қадимдан ўзаро тинч бўлмаган давлатни босиб олиш осон бўлган. Бунга исбот сифатида "Абулфайзхон" драмасида Нодиршоҳнинг гапларини келтирсак бўлади. Шундай қилиб иттифоқлилик йўқдан бор қилишлиги мумкин. Аммо ноаҳиллик сабаб бор ҳам йўқ бўлиши мумкин:

Кўрдингизми, юнг ўзи хўб майдадур,  
Бирлашуб арқон бўлса, фил бойланур.

Кўриниб турганидек, асарда кичик-кичик ҳикоялар орқали бола тарбияси учун аҳамиятли бўлган ғоялар, уларни эзгуликка, тўғриликка ундовчи фикрлар, уларнинг ҳаёти давомида аскатадиган маслаҳатлар бериб ўтилган. Ҳажм жиҳатидан кичик бўлган ушбу ҳикояларни ёдда сақлаш осонлиги билан ҳам аҳамиятлидир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1.Б.Қосимов Абдулла Авлоний, Забаржад медиа, 2022.

## G‘O‘ZADA O‘RGIMCHAKKANANING TARQALISHI, ZARARI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

**Qo‘chqorov Astonaqul Musurmonqulovich**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti kafedra mudiri

**Jo‘raev Nurboy Usmon o‘gli**

II-bosqich magistranti

E-mail: [aquchqorov1962@mail.ru](mailto:aquchqorov1962@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida g‘o‘zada o‘rgimchakkananing tarqalishi, keltiradigan zarari va unga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash choralari haqidagi kuzatishlarning ma’lumotlari aks ettirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** G‘o‘za, zararkunanda, o‘rgimchakkana, kuzatishlar, tarqalishi, zarari, hosil, agrotexnik, biologik, kimyoviy, qarshi kurash choralari va x.k.

Head of the department: **Kuchkorov Astonakul Musurmankulovich**

Master of 2 course: **Juraev Nurboy Usman ugli**

### **ABSTRACT**

*In this article, the observations about the spread of the spider mite in cotton in the conditions of Surkhandarya region, the damage it causes and the agro technical, biological and chemical control measures against it are reflected.*

**Key words:** Cotton, pest, spider mite, observations, spread, damage, harvest, agrotechnical, biological, chemical, countermeasures, etc.

**KIRISH.** Ma'lumki, bugungi kunda qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olishda zararli organizmlarga qarshi kurashish asosiy omillardan biridir. BMT huzuridagi FAO tashkiloti bergan ma'lumotlarga qaraganda har yili turli zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan qishloq xo'jaligi va oziq -ovqat mahsulotlarining 30-35 % qismi yo'qotilmoqda {1}.

Pespublikamizning janubiy Surxondaryo viloyatining iqlimi keskin o'zgaruvchan (kontinental) bo'ib boshqa viloyatlardan havo harorati, tuproq- iqlim sharoiti bilan ancha farq qiladi. Bundan tashqari, aksariyat hollarda qishi iliq bo'lishi tufayli zararli organizmlar ham deyarli talofatsiz qishlab chiqadi va bahorning 10-15 kun erta kelishi hisobiga o'simliklar barvaqt uyg'onishi barobarida zararkunandalar ham shunga mos darajada paydo bo'la boshlaydi.

So'nggi yillarda butun yer yuzida iqlimning global o'zgarishi ta'sirida mintaqamizda ham ekologik o'zgarishlar ro'y bermoqda, chunonchi Surxondaryo viloyatida havoning tez-tez quruq va chang-to'zonli bo'lishi kuzatilmoqda. Bunday salbiy ekologik holatlar ayrim zararkunandalar, xususan o'rgimchakkalar rivojlanishi va tarqalishi uchun juda qulay ekanligini nazarda tutish kerak.

Respublikamizda g'o'za muhim strategik ekin bo'lib milly iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Mamlakatimiz bo'yicha har yili 1 mln.dan oshiq maydonga g'o'za ekilib 3 mln. tonnadan ko'proq paxta hosili olinadi. Mana shunday yuksak marraga erishish uchun g'o'zaning ashaddiy xavfli zararkunandasi – o'rgimchakkani o'rganish va unga qarshi kurashish doimo dolzarb bo'lib qolaveradi.

## KUZATISHLARNING MATERIALLARI VA USLUBLARI

Kuzatishlar Surxondaryo viloyati Muzrobod tumani "Navbahor" hududiga qarashli "Normo'minov Muhammad" fermer xo'jaligining 23-hektarli "Buxoro – 102" navi ekilgan dalasida o'kazildi. Kuzatishlar asosan Sh.T. Xo'jaev va boshqalar (2004) hammullifligidagi "Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalari"ga (II-nchi nashr) binoan olib borildi {2}.

## NATIJALAR

G‘o‘zaning ashaddiy so‘ruvchi zararkunandalaridan biri sanalgan o‘simlikxo‘r kanalar turiga kiradigan oddiy org‘imchakkana (*Tetranychus urticae* Koch.) umurtqasiz hayvonlarning bo‘gimoyoqlilar (Arthropoda) tipi, o‘rgimchaksimonlar (Arachnida) sinfi, kanalar (Acari) turkumi, 8-oyoqlilar (Tetrahychoidea) oilasiga mansub bo‘lib Surxon vohasi go‘za dalalarida keng tarqalib katta iqtisodiy zarar yetkazish ehtimoli yuqoridir {1;3}.

O‘rgimchakkana mayda, tanasi 0,3-0,5 mm bo‘lib ovalsimon ko‘rinishga ega, lichinkasining 3 juft, imagosining 4 juft oyoqlari bor. Bahor va yoz oylarida ko‘kish-sariq, qishda esa to‘q sariq- qizil rangda bo‘ladi. O‘rgimchakkana mart -aprelda 25-30 kunda, may oyida 15-20 kunda, yoz oylarida 7-12 kunda rivojlanadi. Havo haroratining yuqori darajada bo‘lishiga bo‘gliq holda bir yilda 12-30 tagacha avlod beradi, yozda 8-12 ta avlod berdi. Urg‘ochi o‘rgimchakkana tuxum, qurt, pronomfa, deytonimfa, imagolik davrlarini o‘taydi. Tuxumi sharsimon oval shaklda bo‘ladi, urg‘ochi o‘rgimchakkana g‘o‘za barglarida 35-40 kun yashaydi, 100-160 dona tuxum qo‘yadi. G‘o‘zaning ingichka tolali navida 10-15 kun yashaydi va 40- 50 donagacha tuxum qo‘yadi. O‘rgimchakkaning vohamizda rivojlanishi uchun kunlik haroratning o‘rtacha  $22-28^{\circ}$  va undan ham yuqori, nisbiy namlikning esa 45-55 % bo‘lishi qulay sharoit bo‘lib hisoblanadi. Agarda tizimli qarshi kurash choralarini tashkillashtirilmasa o‘rgimchakkana g‘o‘za hosilining 45-50 % gachasini nobud bol’ishiga olib keladi. O‘zbekiston o‘simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassis olimlari Sh.T.Xo‘jaev va A.A.Hakimovlar (2004) tomonidan g‘o‘zada o‘rgimchakkananing iqtisodiy zarar yetkazish darajasini belgilaydigan miqdor mezonini 3 xil o‘sish va rivojlanish davrlari bo‘yicha ilmiy va amaliy jihatdan asoslab ko‘rsatib berilgan {2}:

1. Nihol davrida zararlanish darajasi o‘rtacha 5-7 %,
2. Shonalash davrida -10 %,
3. Hosil olish davrida esa 20-25 %.

## MUXOKAMA

Agarda g‘o‘zada o‘rgimchakkananing tarqalishi va zarar berishi shu 3 xil davrda yuqoridagi darajada aniqlansa g‘o‘za hosili uchun xavfli bo‘lib zudlik bilan kimyoviy kurash choralari o‘tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuning uchun ham paxtachilikda bu zararkunandaga qarshi o‘z vaqtida kurashish, uning zararini oldini olish o‘ta dolzarb ekanligini e’tiborga olib ilmiy va amaliy asoslangan uygunlashgan kurash tizimini qo‘llash kutilgan ijobiy natijalarga olib keladi. Kuzatishlarimizda aynan shu bayon etilgan masalalar qamrab olingan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bu zararkunanda g‘o‘za bargining orqa qismiga joylashib olib sanjib so‘rib zararlaydi, qattiq zarargangan barglar esa to‘kilib ketadi. O‘rgimchakkaning g‘o‘zaga kuchli darajada zarar yetkazish davri may -iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Urg‘ochi o‘rgimchakkanalar o‘simplik qoldiqlari ostida, yo‘l va ariq chetlarida, daraxt po‘stloqlarida, tuproqda va g‘o‘za dalalarida yakka yoki guruh bo‘lib qo‘shiladi. Sh. Xo‘jayev ma’lumotiga ko‘ra  $-22^{\circ}$  sovuqda ham qishlovdan omon chiqadi, ular faqat havo harorati  $-29^{\circ}$  bo‘lganda butkul nobud bo‘ladi.

### **Qarshi kurash choralari**

1. Agrotexnik kurash choralari - g‘o‘za qator oralariga o‘z vaqtida ishlov berish, begona o‘tlarni yo‘qotish, barg orqali suspenziya usulida o‘ziqlantirish, dala chetlariga changni bostirish maqsadida tez-tez tiniq va toza suv sepib turish

2. Biologik kurash choralari - oltinko‘z entomofagini 3-4 kunlik tuxumlaridan o‘rgimchakkanaga qarshi 1:10, 1:20 nisbatda 10 kun oralatib 2 marta 500-1000 donadan chiqarish.

3. Kimyoviy kurash choralari - oltingugurt kukunidan gektariga 20-30 kg sarf meyo‘rida changlatish, oltingugurtning 0.5-1 gradusli oxakli qaynatmasidan har gektariga 300 litr purkash, dala chetlari va o‘rtalarida oltingugurt to‘dalarini qo‘yish, kimyoviy maxsus akaritsid preparatlaridan - g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanish davrida

g‘o‘za bargi o‘rgimchakkana bilan 10-25 % qoplanganida gektariga ta’sir etuvchi moddasi propargit asosli Omayt, 57 % li k.e – 1,5 litr{3}, gekzitiazoks asosli Nissoran, 10% li n.kuk. – 0,1 kg va abamektin asosli Vertimek, 1,8 % li em.k. – 0,3 - 0,4 litr hisobida qo‘llash yuqori samara beradi.

4.G‘o‘zada o‘rgimchakkaning ko‘payishi, tarqalishi va zararini monitoring o‘tkazish asosida bashorat qilib, qarshi kurash usullarini rejalashtirish tavsiya etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Pospelov S.M. va boshqalar. O‘simliklarni himoya qilish. –Toshkent. – “O‘qituvchi”. -1978. -22-23, 200-202 betlar.

2.Xo‘jaev Sh.T. va boshqalar. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalari” (II-nchi nashr). –Toshkent.- “Ko‘hi-Nur” MCHJ bosmaxonasi. -2004. -8-9, 20-21 betlar.

3.Xodjaev Sh.T. va boshqalar. O‘simlikxo‘r kanalarga qarshi “Omayt” akaritsidini samarali ishlatish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. –Toshkent. –“O‘HQITI”. - 2005. – 17 bet.

**BADIY MATNDA SINTAKTIK BIRLIKLER TAHLILI**  
**(arab adibi M. Najibning “O‘g‘ri va itlar” romani misolida)**

Asqarova Saidaxon,

saidakhon1216@mail.ru

32/7, Khuroson, Tashkent, 100011. Uzbekistan

Undergraduate student of INTERNATIONAL ISLAMIC  
ACADEMY OF UZBEKISTAN

**ANNOTATSIYA**

*Badiy asarning katta shuhratga erishib o‘z kitobxonlariga ega bo‘lishi asosida uning so‘z boyligi, ta’sirchanligi, yozuvchining mahorati yotadi. Shunday badiy asarlar borki, yaratilgan davridan boshlab hozirgi kungacha o‘zining aktualligini yo‘qotmay kundan-kunga kitobxonlar doirasi kengayib boradi. Adabiyotshunos va tilshunos olimlar bu asarlarni qayta-qayta o‘rganib, fanda yangiliklar yaratishadi. Bu maqolada mashhur arab adibi Najib Mahfuzning ijodi misolida matndagi sintaktik birliklar tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** *Najib Mahfuz, “O‘g‘ri va itlar”, sintaktik birliklar, balog‘at, adabiyot.*

Mahmud Najib 1911-2006- yillarda yashab o‘tgan mashhur adib, dramaturg, senarist, 40 dan oshiq romanlar muallifidir. Arab tilining go‘zal qirralarini ochib bergani uchun arab adabiyoti tarixida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan ilk arab yozuvchisidir. Uning asarlari o‘zining leksik-semantik strukturasi, so‘zlarning qo‘llanilishidagi mahorat, nodir uslub jihatni bilan ajralib turadi. Bugungi kunda uning asarlari nafaqat o‘zining ona yurti, Misrda, balki bir necha tillarga tarjima qilinib, dunyoning barcha mamlakatlarida sevib mutolaa qilib kelinmoqda.

Tadqiqot uchun adibning “O‘g‘ri va itlar” nomli romani tanlab olindi. Roman yaqinda qamoqdan chiqqan o‘g‘ri haqida bo‘lib, u qamoqqa tushishiga sababchi bo‘lgan atrofidagi xoinlardan o‘ch olish o‘ziga oldiga maqsad qilib oladi.

Arab adabiyotida stilistika – “balog‘at” deb atalib, u uch qismga bo‘linadi:

- علم المعانى – ma’nolar ilmi
- علم البديع – notiqlik ilmi
- علم البيان – bayon ilmi

Ushbu maqolada balog‘atning bayon ilmi qismi ko‘rib chiqilmoqda. Sintaktik birliklar, metaforalar, sinekdoxa, o‘xshatish va metonimiya aynan shu qismda o‘rganiladi.

Mashhur arab adibi o‘z romanida sintaktik birliklardan qanday uslubda foydalanganini ko‘rib chiqsak.

*(Daraxtlarning shivirlashi kuchaydi)*

Ushbu jumladagi مناجاة الأشجار so‘z birikmasi noodatiy bog‘lanish turiga kiradi. Arab tilidagi leksemasining maslahatlashish, suhbat qurish kabi semalari orasidan shivirlash semasi daraxtlarning shitirlash harakatiga o‘xhatilgan.

*(Sen, men tomonga otilayotgan o‘qlar orasidagi jannatsan)*

Qamoqdan qaytgach, Said Mehran yana jinoyat sodir etadi. O‘sha paytda uni unutmagan va qo‘llab-quvvatlagan kam sonli odamlardan biri Nabiviya edi. Aynan unga bosh qahramon bu minnatdorchilik so‘zlarini bag‘ishlaydi va uni “orqada uchayotgan o‘qlar” - politsiya uni ovlagan paytda uning joniga oro kirkani uchun “jannat”.

*(So ‘nggi tilli ip derazadan chiqib ketmoqda)*

Jumladagi *tilla ip* so‘z birikmasi – *quyosh nuri* birikmasining o‘rniga ishlataligan. Qahramon qamoqdan chiqib ozodlikdagi birinchi kunini o‘tkazayotgani, bu kun uzoq kutilgan, o‘zgacha kun bo‘lganligi uchun adib uning har bir daqiqasini, tabiat va osmon jismlari yordamida o‘quvchiga yanada ta’sirliroq yetkazish maqsadida sintaktik birikmalardan mahorat bilan foydalanadi.

*Tilla ip* birikmasida – *tilla* rang – quyoshning rangiga, *ip* leksemasi esa – quyoshning ip kabi ingichka nuriga o‘xshatilmoqda.

(*Qal’aning boshi musaffo osmonda uchayotgan edi*) طار رأس القلعة في السماء الصافي

– رأس *“bosh”* leksemasi tana a’zosi manosidan uzoqlashtirilib uning joylashuvi ya’ni “narsaning yuqori qismi” ma’nosи kuchaytirilmoqda.

Asarda bunday noodatiy bog‘lanishdagi sintaktik birikmalar ko‘p bo‘lib, asosan أسرار الجحيم, ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan: أن تلتقي العينان (ko‘zlar uchrashuvi), صفو, (jahannam sirlari, muhabbat sharobi), شراب الحب (rangin taomlar), قلب أصم (hayotning musaffoligi) (kar qalb).

Najib Mahfuz qahramonlarning obrazlarini ifoda etish maqsadida o‘xshatishlar – tashbeh san’atiga ko‘p murojaat qiladi. O‘xshatishlarda adib qiyos obyekti sifatida asosan jonivorlardan foydalangan.

(*Sen oyog ‘imga itdek suykalar eding*) كنت تتمسح في ساقى كلكلب

Arab tili stilistikasida qiyos obyekti – المشبه به –، qiyos etaloni – المشبه به –، deb nomlanadi.

Yuqoridagi jumlani tahlil qilsak:

كُنْتَ (أَنْتَ) – المشبه

الكلب – المشبه به

كـ – اداة التشبيه

تمسح – وجه الشبه

(*Ro ‘paramda itdek turar edi*) كان يقف بين يدي كلكلب

Yuqorida keltirilgan ikki misolda ham shaxs – oyog‘ostи bo‘ladiga, irkit jonivor – *itga* qiyoslanmoqda. Bu misol orqali hayvon ma’nosini shaxs ma’nosи bilan

almashtirish natijasida ifoda ma'nolari kuchaytirilib o'quvchida salbiy obraz timsoli hamda ularga xos xarakter-xususiyatlarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida, ko'rib o'tilganidek o'xshatishlardan keng foydalanilgan.

تسلق (U yerdan sichqon kabi kallalar mo 'ralab turar edi) تشرئب منها الروؤس كالغيران (Maymunniki kabi chaqqon qo'llari bilan osongina devordan oshib o'tdi) تحرسه الاشجار من كل جانب كالأشباح (Uni har tomondan daraxtlar arvoх kabi qo'riqlar edilar) قد ذهل عن كل شيء فانصب الرصاص كالمطر (U barchasi haqida unutdi, o'qlar esa yomg'ir kabi yog 'ilar edi)

*Bu jumlalarda shaxslar – sichqonlarga, chaqqon qo'llar – maymunning qo'llariga, daraxtlar – arvohlarga, o'qlar esa – yomg'irga qiyoslanmoqda.*

(ابوه قوي و اهله كالنمل) (Uning otasi baquvvat, qarindoshlari esa chumoli kabi edilar)

Qarindoshlar – chumoli leksemasiga qiyoslanib, jumlada chumoli leksemasi - “serurug‘, ko'psonli” ma'nosida qo'llanilgan.

Asarda ibora ko'rinishidagi o'xshatishlarni ham bir necha o'rnlarda uchratamiz, masalan: (جسمه النحيل القوي كانه نمر يتربيص بفيل) (Uning gavdasi filga tashlanmoqchi bo'lган arslonnikidek baquvvat edi)

Adib asar qahramoning baquvvat, kuchli sifatlarga ega ekanligini bo'rttirib ko'rsatish uchun oddiygina arslonga qiyoslash bilan cheklanmasdan, arslonning eng kuchga to'lган vaqtiga – filga tashlanmoqchi bo'lган holatiga o'xhatadi.

( جاءكم من يغوص في ماء كالمسمكة و يطير في الهواء كالصقر و يتسلق الجدران كالفأر ) (Baliq kabi suvda suzadigan, burgut kabi samoda parvoz qiladigan va sichqon kabi devorlarni oshib o'tadigan kishi huzuringizga keldi). Bu tasvirda uyushib kelgan bir nechta o'xshatishlarni ko'ramiz.

Jahon adabiyoti durdonasiga aylangan asarlar muallifi Mahfuz Najib, tildagi sintaktik birliklar, so'z birikmalar, o'xshatishlar va metaforalardan foydalanishda o'zining teran hayotiy mushohadaga ega ekanini ko'rsatgan. Ehtimol shu sababli uning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar**

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – T., 1981. – 140. b.
2. Mahmudov N.M. O‘zbek tilidagi soda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T., 1984. – 204. b.
3. Mukarramov M. O‘zbek tilida O‘xshatish. – T., 1976. – 169. b.
4. Ne’matov H. Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T., 1995. – 128 b.
5. Najib Mahfuz. Al-lissu va-l-kilab. – Misr, 1998. – 178 b.

## ANCIENT BACTRIA IN GREEK SOURCES

**Abdusamad Bahodirovich Poyonov**

Teacher of Termez State University

[poyonova@tersu.uz](mailto:poyonova@tersu.uz)

**ABSTRACT.** This article delves into the Greek sources that shed light on the ancient region of Bactria in Central Asia. Drawing from primary Greek texts, including the works of historians such as Herodotus, Xenophon, Strabo, and Arrian, this study examines the portrayal of Bactria and its people from a Greek perspective.

The article begins by providing an overview of Bactria's historical significance, highlighting its strategic location along the Silk Road and its rich cultural heritage. It then explores the accounts of Greek authors who documented their encounters with Bactria and its inhabitants. Special attention is given to the Hellenistic period following Alexander the Great's conquests, during which Greek kingdoms were established in Bactria, resulting in the fusion of Greek and local cultures.

**Keywords:** Ancient Bactria, Greek sources, Greek authors, Bactrian culture, Geopolitical dynamics, Cultural fusion, Archaeological evidence, Greek perspectives, Economic activities, Religious practices, Comparative analysis.

### INTRODUCTION

Bactria is a region that has its place in the material and spiritual life of the peoples of Central Asia. Its borders correspond to the territories of present-day Southern Uzbekistan, Southern Tajikistan and Northern Afghanistan [9]. This article aims to delve into the Greek sources that shed light on Bactria, uncovering the Hellenistic perspectives on this ancient Central Asian region. By examining the works of prominent Greek historians such as Herodotus [5], Xenophon [1], Strabo [13], and Arrian [10], we can gain a deeper understanding of Bactria's historical significance and its place within the Greek world.

The historical context of Bactria is crucial to comprehend its relevance in the ancient world. Following the conquests of Alexander the Great in the 4th century BC, Greek influence spread across vast territories, and Greek kingdoms were established in various regions, including Bactria. The resulting Hellenistic era witnessed a blending of Greek and local cultures, shaping the unique character of Bactria and its inhabitants.

The Greek sources provide valuable glimpses into various aspects of Bactrian society, such as its political organization, economic activities, and religious practices. Descriptions of Bactrian cities, architecture, and customs allow us to reconstruct the urban and rural life of this ancient Central Asian civilization. Additionally, the military campaigns, alliances, and conflicts involving Bactria and neighboring regions offer insights into the geopolitical dynamics of the time [4].

By synthesizing the available Greek sources and examining them within the broader context of Bactrian history, this article aims to contribute to our knowledge of ancient Bactria and its significance in the Hellenistic world. By considering multiple perspectives, we can gain a more nuanced understanding of this fascinating region and its enduring impact on the historical narratives of Central Asia.

## METHODS

To explore the ancient region of Bactria through Greek sources, this article employs a multi-faceted approach that involves a comprehensive analysis of primary texts, critical evaluation of their reliability, and comparative examination with other available sources. The following methods are employed to delve into the Hellenistic perspectives on Bactria: Selection and analysis of Greek sources, contextualization and historical background, critical evaluation and identification of biases, comparative analysis with other sources, synthesis and interpretation. By employing these methods, this article aims to present a balanced and comprehensive exploration of Bactria through Greek sources, contributing to the scholarly discourse on the region's history and its interactions with the Greek world during the Hellenistic period.

## RESULTS

The analysis of Greek sources pertaining to ancient Bactria provides several noteworthy results that contribute to our understanding of the region and its interactions with the Greek world during the Hellenistic period.

Herodotus identifies Bactria as a region located to the northeast of Persia (modern-day Iran). He places it beyond the territories of the Persian Empire and describes it as a part of the wider Central Asian region. Herodotus mentions the Bactrians in the context of their cavalry. He describes them as skilled horsemen and asserts that they formed a vital part of the Persian army during the invasion of Greece. According to Herodotus, the Bactrians, along with other cavalry units, played a significant role in Persian military campaigns. Herodotus briefly touches upon the origins of the Bactrians. He suggests that they were descended from the Medes, an ancient Iranian people. This implies a connection between the Bactrians and the broader Iranian ethnic group. [11]

